

2019 yil yanvar-iyul oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4409,7 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **109,2 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **3009,3 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **112,4 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **68,2 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **72,4 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4409,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 109,7 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 89,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 106,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4183,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,8 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	8,6	9,3	92,5
Paxta linti, ming tonna	1,5	1,7	88,2
Aroq – ming litr 100 % spirt	262,8	680,2	38,6
Vino, ming litr	871,0	756,9	115,1
Un, ming tonna	70,4	66,4	106,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,2	7,3	98,6



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 161,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3009,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 112,4 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 68,2 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2018 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 30,1 % dan 2019 yilning yanvar-iyul oyida 31,5 % ga ortgan.

Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

Yanvar-iyul 2018 y.

Yanvar-iyul 2019 y.



2018 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 69,9 % dan 2019 yilning yanvar-iyul oyida 68,5 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatilmoqda.

**Hududlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-iyulga nisbatan o'sish, %
Viloyat jami	3009,3	100,0	112,4
Namangan shahar	1431,1	47,5	112,7
Mingbuloq	26,7	0,9	107,1
Kosonsoy	126,0	4,2	113,2
Namangan t	319,3	10,6	112,0
Norin	61,0	2,0	112,6
Pop	73,9	2,5	104,1
To'raqo'rg'on	249,0	8,3	113,6
Uychi	195,8	6,5	111,2
Uchqo'rg'on	264,4	8,8	107,8
Chortoq	59,0	2,0	112,5
Chust	157,8	5,2	127,4
Yangiqo'rg'on	45,3	1,5	104,4

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1095,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida bu ko'rsatkich 24,8% ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018 yil yanvar-iyul


2019 yil yanvar-iyul



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-iyul, mlrd.so'm	2018 yil yanvar-iyulga nisbatan, %
Viloyat jami	4409,7	109,2
Namangan shahar	1956,8	106,5
Mingbuloq	102,2	110,1
Kosonsoy	170,8	110,9
Namangan t	496,5	113,0
Norin	84,8	104,6
Pop	172,0	102,1
To'raqo'rg'on	406,4	126,7
Uychi	285,9	105,4
Uchqo'rg'on	446,0	108,7
Chortoq	59,2	101,8
Chust	168,8	117,6
Yangiqo'rg'on	60,3	101,5

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 44,4 % ulushini), Namangan (11,3 %), Uchqo'rg'on (10,1 %), To'raqo'rg'on (9,2 %), Uychi tumani (6,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,3 %), Yangiqo'rg'on (1,4 %), Norin (1,9 %), Mingbuloq (2,3 %) va Chust (3,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da




Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 47,5 %), Namangan (10,6 %), Uchqo'rg'on (8,8 %) hamda To'raqo'rg'on (8,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida To'raqo'rg'on, Chust va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (3181,2 ming so'm), Namangan tumanida (2829,4 ming so'm), Uchqo'rg'on (2640,8 ming so'm) va To'raqo'rg'on (1833,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1595,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1088,5 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 2326,8 ming so'mni, Namangan tumanida 1819,9 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1565,5 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 1123,5 ming so'mni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat
ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari**




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 3194,1 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 72,4 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Uychi (87,0 %) va Namangan (86,9%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (25,8 %), Pop (34,4 %) va Chust (56,4 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5272 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2294 tasi Namangan shahrida, 385 tasi Uychi, 383 tasi Chust, 368 tasi Namangan, 338 tasi Kosonsoy, 318 tasi To'raqo'rg'on, 236 tasi Uchqo'rg'on, 222 tasi Norin, 215 tasi Yangiqo'rg'on, 203 tasi Chortoq, 198 tasi Pop va 112 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

**2019 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 1056 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 54,8 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Norin tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 avgust holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(71) 230-84-80